

0'zDSMI Farg'ona filiali

dsmi-qf.uz

0'zDSMI Nukus filiali

Nukus filiali tarixi

Xalqimizning bektakror san'ati va madaniyatini yanada yuksaltirish, madaniyat va san'at sohasida teatr, kino, televideniya va xalq ijodiyoti yo'nalishlari bo'yicha yuqori to'yifadagi akterlar va san'atshunoslik sohasida mutaxassislarini tayyorlash maqsadida 2008 yil 28 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston davlat san'at institutining Nukus filialini tashkil etishor-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 845-son qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, O'zbekiston davlat san'at institutining Nukus filiali tashkil etildi. Keyinchalik 2012 yil 4 iyunda «O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tashkil etish to'g'risida»gi PQ-1771-son qaroriga asos O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filiali bo'lib qayta tashkil etildi.

Filial dastlabki ochilgan yili «Saxna va ekran san'ati dramaturgiyasi» va «Drama teatri va kinoaktyorligi san'ati» ta'lim yo'nalishlarida 25 talaba qabul qilingan bo'lsa, hozirgi vaqtda 9ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha 700 dan ortiq talaba bilim olmoqda. Bugungi kunda filialda 1ta fakultet va 5ta kafedrada 54 professor-o'qituvchi talabalarning yetuk kadr bo'lib yetilishida ta'lim-tarbiya berib kelmoqda.

Filialda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq aralari,

O'zbekiston v Qoraqalpog'istonga xizmat kursgan artistlar, Qoraqalpog'iston xalq baxshilarining dars berayotganligi nazariy bilimlar va amaliyotni o'z-aro bog' liqlik holda olib borishga, shuningdek, talaba-yoshlarning o'z ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib etishida katta ahamiyat kasb etadi.

2020-2021-o'quv yilida filialning kunduzgi bo'limiga yangidan «Professional ta'lim: Xalq ijodiyoti (Vokal ijrochiligi)» ta'lim yo'nalishi bilan birga, mazkur yilda filialning sirtqi bo'limi ham ochildi. Yangidan ochilgan sirtqi bo'limda «San'atshunoslik (saxna va ekran san'ati dramaturgiyasi)», «Madanat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish», «Kutubxona-axborot xizmati (kutubxonachilik vabibliografiya)» ta'lim yo'nalishlari uchunvo k talar ajratilgan bo'lib, bugungi kunda sirtqi bo'limda 100 nafar talaba bilim olmokda. Filialda bilim olayotgan talaba-yoshlarning san'atga bo'lgan kiziquvchanligini orttirish maqsadida 2018 yili «Tumar» raqs ansambli tashkil etildi. Qisqa davr ichida «Tumar» raqs ansamblya respublikimiz miqyosida keng tanildi va bugungi kunda Mustaqillik va Navruz bayramlarida o'z konsert dasturlari bilan ishtirok etib kelmoqda.

Batafsil Nukus filiali haqida ->

MALAKA OSHIRISH MARKAZI

**? Malaka oshirish Tarmoq markazi
(Madaniyat va san'at yo'nalishi)**

**Manzil:Toshkent sh.Yalong'och mavzesi 127
a uy**